



## **ONA TILI TA'LIMIDA GRAMMATIK QOIDALARNI REPRODUKTIV TESTLAR YORDAMIDA MUSTAHKAMLASH**

Komilova Lola Nasilloyevna

ToshDO‘TAU 2-bosqich tayanch doktoranti

Tel:+998909245100

komilova2811@gmail.com

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada ona tili ta'limida grammatik qoidalarni yangi mavzuni o'tishda, mavzuni mustahkamlashda va baholashdagi o'rni va ayrim misollar orqali berilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, Grammatik qoidalar, reproduktiv testlar, grammatika va mantiq.

Ona tili ta'limi asrlar osha o'zining grammatik qoidalarni o'rganish va o'rgatishni sayqallab bormoqda. Buni dunyo ta'limida XX asrda paydo bo'lgan va bugungi kunda ham pedagogikada o'zining o'rni va foydalanish salmog'ini saqlab kelayotgan test metodi orqali olib borilayotgani sir emas, albatta.Grammatik qonun-qoidalarni o'rganish, mustahkamlash va baholashda darajali testlarning o'mi beqiyos. Mantiqiy fikrlash ijodiy tafakkur tamalidir. Ijodiy fikrlash shaxsnинг yangi g'oya, yechim, tushuncha yoki muammolarga yondashuvini yaratish, standart fikrlash usullaridan tashqariga chiqish va original, innovatsion bo'lish qobiliyatidir. U muammolarni hal qilishga nostandart yondashuvni, assotsiativ fikrlash, tajriba o'tkazish va odatiy doiradan tashqaridagi imkoniyatlarni ko'rish qobiliyatini nazarda tutadigan fikrlash turi hisoblanadi.Tafakkur qonunlarining ishlash sifati grammatik qonuniyatlar bilan muvofiqlashadi. Anglangan va avtomatlashgan grammatik qonuniyatlar sifatli tafakkur mahsulini hosil qiladi.

Grammatik ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish. Grammatik amallar asosida o'quvchini mantiqiy fikrlashga yo'naltirish mashq va topshiriqlarni berish uning mantiqiy qonun va qoidalarni qo'llash qobiliyatini rivojlantirishning kaliti bo'lishi mumkin. Bunda, albatta, mantiq qonuniyatları berilayotgan grammatik bilimlarga "yedirib" yuboraladi. Ushbu jarayonda yordam beradigan bir necha usulni keltiramiz:



**1) mantiqiy fikr yuritishga doir mashq va topshiriqlar.** O'quvchiga mantiqiy fikrlash mashqlari, masalan, mantiqiy boshqotirma, mantiqiy masala, mantiqiy qonun va qoidalarni qo'llashni talab qiluvchi fikrlash masalalari taqdim etiladi. Masalan, Gapdagi mantiqiy bog'lanishni tiklash. O'quvchilarga tarkibi buzilgan, noto'g'ri joylashgan so'zlardan iborat gaplar beriladi. Ular bu so'zlarni grammatik va sintaktik jihatdan to'g'ri tartibda joylashtirishi kerak. Misol: "Maktab o'qidi bola yangi" → "Bola yangi maktabda o'qidi".

**2) deduktiv mulohaza yuritishga doir mashq va topshiriqlar.** O'quvchining grammatik tuzilmalarni tahlil qilishida umumiy qoidalardan tortib, aniq misollar va ilovagacha deduktiv fikrlashdan foydalanishga o'rgatish mumkin. Masalan, Quyidagi jumladagi grammatik qoidalarni aniqlang va xulosa chiqarishga harakat qiling:

1. "U maktabga borganida, do'stлari bilan uchrashdi".
2. Ushbu jumlada qaysi zamon qo'llanilgan?

**Javob:** Jumlada o'tgan zamon (ilgari ro'y bergan ish-harakat) qo'llanilgan.

**3) matn tahliliga doir mashq va topshiriqlar.** O'quvchiga grammatik tuzilmalardan foydalanib matnlarni mantiqiy izchillik nuqtai nazaridan tahlil qilish mashq va toprishiqlari tavsiya etiladi. Masalan, Quyidagi matnni o'qing va shu asosda tuzilgan savollarga javob bering.

"Maktabda yangi kitoblar chiqdi" jumlasida: A) "Maktabda" so'zi nimani anglatadi? B) "Yangi" so'zi qaysi grammatik funksiyani bajaradi? C) Jumlada kesim qaysi?

**Javob:** A) Joyni anglatadi; B) Sifat; C) Chiqdi.

**4) argument yaratishga doir mashq va topshiriqlar.** O'quvchini grammatik qoidalarga asoslanib argumentlar tuzish, xulosalarini asoslash va mantiqiy xulosalar chiqarish bo'yicha tegishli mashq va topshiriqlar tavsiya etiladi. Masalan, Quyidagi jumani to'g'ri tuzilgan sintaktik struktura bo'yicha belgilang: A) Qizlar maktabga ketdilar. B) Maktabga qizlar ketdilar. C) Ketdilar qizlar maktabga.

**Javob:** A) Qizlar maktabga ketdilar.

Quyidagi jumlalarni zamonlariga ko'ra tasniflang va har birining o'ziga xosligini tushuntiring:



1. Men kitob o‘qidim.
2. U hozir kitob o‘qiyapti.
3. Biz ertaga sayohatga chiqamiz.

Argumentli javoblar:

1. **Men dars o‘qidim.** – O‘tgan zamon: bu harakatning o‘tganligini ifodalaydi.
2. **U hozir kitob o‘qiyapti.** – Hozirgi zamon: bu harakatning hozirgi paytda amalga oshayotganini ko‘rsatadi.
3. **Biz ertaga sayohatga chiqamiz.** – Kelasi zamon: bu harakatning kelajakda amalga oshirilishini ifodalaydi.

**5) grammatika bo‘yicha mantiqiy test topshiriqlari.** O‘rganilgan grammatik qoidalar asosida mantiqiy tahlil va xulosalar chiqarishni talab qiluvchi test topshiriqlarini berish mumkin. Masalan, Gaplar (1,2,3) ni (A-F) da moslashtiring(variantlarning uchtasi ortiqcha).

1. Shashqator yoshlar oqar, Qon qizargan ko‘zimdan.	A) Atov gap
2. – Qaylarga olib ketdi men sevgan hisni? -Osmonlarga, qaytmas bo‘lib...	B) Ikkibosh bo‘lakli gap
3.Osmonni qo‘riqlovchi, bulutlar, so‘zlang, Yorimni olib ketdi qaysi jahonga?!	C) Uyushgan bo‘lakli gap
	D) Undalmali gap
	E) Shaxsi (egasi) umumlashgan gap
	F) To‘liqsiz gap

Javob: 1-B, 2-F, 3-D

**6)axborotning mantiqiy tuzilishiga doir mashq va topshiriqlar.** O‘quvchiga o‘rganilayotgan grammatik bilimlar asosida axborotni mantiqli tuzishga o‘rgatish, matnning mantiqiy strukturasini aniqlash, undagi gaplar ketma-ketligi va mantiqiyligini tushunish amallarini bajarish tavsiya etiladi. Masalan,Gapdagagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling.

[1] Til tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini [2] yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

a) gapda ajratib ko‘rsatilgan 1- so‘z qaysi so‘zga tobelanib bog‘langan?



Javob: qoldiriladi (kesimga)

b) gapda ajratib ko‘rsatilgan 2-so‘z qaysi so‘zga tobelanib bog‘langan?

Javob: davom ettiradi (kesimga)

**7) berilgan muammoni yechish.** O‘quvchini grammatika va til hodisalarini izohlashdagi qiyinchiliklarni yechishda mantiqiy fikrlashdan foydalanish taqozo etiladigan masalalar bilan ta’minlash zarur. Masalan, Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1.Ilm olishga yoshlikdan harakat qilish kerak.

2.Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir.

a)birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin? Javob: chunki (sabab bog‘lovchisi)

b) natijada qo‘shma gapning qaysi turi hosil bo‘ladi? Javob: ergashgan qo‘shma gap Bu amallar o‘quvchiga nafaqat grammatik qoidalarni shunchaki sxolastik (quruq) bilish va eslab qolishga olib keladi, balki uning mantiqiy tafakkurini, analitik fikrlash va mantiqiy qonunlar asosida xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘rganilayotgan materialni yanada chuqurroq anglash hamda tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz. Pirovardida o‘quvchi grammatik bilimlarning naqadar zarurligini ham anglab yetadi. Bunda reproduktiv testlar darsning o‘z maqsadiga erishishi uchun eng qulay metod hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mahmudov N. Zamonaviy ona tili ta’limi “Til va adabiyot ta’limi” –T.2013.3-son, 6-b.
2. Hamzayev Madrim. Ona tili mavzuli test topshiriqlari to‘plami. -T. —Sharq. 2012.
3. Axborotnama IX. O‘zRVM huzuridagi Davlat test markazi.-T. 2001.